MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN DASTURLAR VA ULARDA BOLALAR KOGNITIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

Jo'rayeva Nigina Xayrullo qizi

Qabul qilindi: 19.10.2025
Ko'rib chiqildi: 20.10.2025
Tasdiqlandi: 21.10.2025

Kalit so'zlar:
maktabgacha ta'lim, ta'lim dasturlari, bolalar, kognitiv ko'nikmalar, rivojlanish, innovatsion yondashuvlar, pedagogika, ta'lim sifati.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tahlil qilinib, ularning bolalarning kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni va muammolari ko'rib chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim, tafakkur, diqqat va xotira kabi asosiy kognitiv ko'nikmalarini samarali rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan ta'limiy dasturlarning mazmuni, metodlari va amaliy tatbiqi tahlil qilingan. Shuningdek, hozirgi kunda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish yo'llari ham muhokama qilingan. Tadqiqotda ta'lim sifatini oshirish va bolalarning kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion yondashuvlar zarurligi ta'kidlangan.

Kirish. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limiy o'yin faoliyatini tashkil qilish jarayoni beshta ta'lim sohasini birlashtirish uzviyligi asosida tashkil etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, "kognitiv" ta'lim sohasining mazmuni bolalar dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida qator dasturlar qabul qilinib, samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillaridan bugungi kunga qadar maktabgacha ta'lim sohasiga doir bir qator dasturlar qabul qilingan bo'lib, bolalar kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan tadbirlarning ushbu dasturlarda ifodalanishini o'rganib chiqishni maqsad qildik.

2001-yilda "Uchinchi ming yillikning bolasi" – bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur mualliflar M.Rasulova, H.Ahmedova, M.Solihova, U.Yusupova, M.Umarova, M.Fayzullayevalar tomonidan tayyorlangan.

Ushbu dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi 5 ta yosh guruhi uchun mo'ljallangan:

1. 2-3 yosh;

2. Kichik yosh (3-4 yosh);

3. O‘rta yosh (4-5 yosh);

4. Katta yosh (5-6) yosh;

5. Maktabga tayyorlov (6-7 yosh).

6. Dastur bo‘yicha 7 ta yo‘nalish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazilishi belgilab berilgan:

7. Nutq o‘stirish.

8. Badiiy adabiyot.

9. Tevarak-atrof bilan tanishtirish.

10. Matematika.

11. Tasviriy faoliyat.

12. Jismoniy tarbiya.

13. Tabiat bilan tanishtirish.

“Uchinchi mingyillikning bolasi” – bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturida maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmagan. Kognitiv rivojlantirishning perseptiv, intellektual va mnemonik jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish borasida ham mashg‘ulotlar o‘tkazish nazarda tutilmagan. Ushbu dasturdagi o‘tkazish rejalashtirilgan mashg‘ulotlar davomida bolalarni umumiy psixologik va pedagogik rivojlantirishga doir vazifalar belgilangan.

Matematika, tabiat bilan tanishtirish, badiiy adabiyot, nutq o‘stirish, tasviriy faoliyat kabi mashg‘ulotlar davomida bolalar sezgi organlarini, idrokini rivojlantirish, intellektual rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Ammo kognitiv jarayonlarga kompleks yondashuv mashg‘ulotlarini tashkil etishga alohida ahamiyat berilmagan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini rivojlantirishga qaratilgan navbatdagi dastur 2010 yilda qabul qilingan. Ushbu dastur “Bolajon” tayanch dasturi deb nomlanib, M.Rasulova, H.Ahmedova, M.Solihova, U.Yusupova, M.Umarova, M.Fayzullayeva, S.Ahmedova, G.Musulmonqulova, I.Baysalovalar muallifligida tayyorlangan.

"Bolajon" tayanch dasturi maktabgacha ta'lim davridagi 5 ta yosh davrini qamrab olgan:

Ilk guruh (2-3 yosh)

Kichik guruh (3-4 yosh)

O'rta guruh (4-5 yosh)

Katta guruh (5-6 yosh)

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar 12 ta yo'nalishda amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1. Atrof-muhit bilan tanishtirish.
2. Tabiat bilan tanishtirish.
3. Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish.
4. Nutq o'stirish.
5. Savodga tayyorgarlik.
6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.
7. Rasm.
8. Loy ishi.
9. Applikatsiya.
10. Qurish-yasash (qo'l mehnati).
11. Jismoniy tarbiya;
12. Musiqa.

Ushbu yo'nalishdagi mashg'ulotlarni tashkil etishga doir metodik tavsiyalar ham berilgan. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni kognitiv rivojlantirish masalasi alohida yo'nalishdagi vazifalarda belgilab berilmagan bo'lsada, ushbu mashg'ulotlarda umumiy holda intellektual rivojlantirish, senso-motor rivojlantirish hamda tasavvurni rivojlantirish nazarda tutilgan.

Mashg'ulotlarning barchasida ham umumiy ko'rinishdagi kognitiv rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga harakat qilingan.

Bolalar bilish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qo'yilgan talablar va undan kutiladigan natijalar 2018 yilda qabul qilingan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida batafsil bayon qilingan. Dastur I.V.Grosheva, L.G.Yevstafyeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisovalar muallifligida tayyorlangan.

"Ilk qadam" davlat dasturi quyidagi 4 ta yosh guruhlarida mashg'ulotlar tashkil etishga mo'ljallangan:

1-guruh: 3-4 yoshlilar;

2-guruh: 4-5 yoshlilar;

3-guruh: 5-6 yoshlilar;
4-guruh: 6-7 yoshlilar.
Dastur bo‘yicha 12 ta yo‘nalishda mashg‘ulotlar o‘tkazish mo‘ljallangan:

2. Atrofdagi olam bilan tanishtirish.
3. Tabiat bilan tanishtirish.
4. Badiiy adabiyot.
5. Nutqni rivojlantirish.
6. Sensortarbiya.
7. Elementar matematika.
8. Rasm chizish.
9. Applikatsiya.
10. Kostruksiyalar tuzish.
11. Pastilin, loydan yasash.
12. Jismoniy tarbiya.
13. Musiqa.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni kognitiv rivojlantirishga doir mashg‘ulotlar har bir MTTda tashkil etiladigan markazlar faoliyati asosida yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Dastur bo‘yicha belgilangan bolaning kognitiv rivojlanish xaritasida elementar bilimlarni o‘zlashtirish, sensor rivojlantirish, ijtimoiy rivojlantirish, madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish, xotirani o‘stirish, topshiriqlarni bajarishda tegishli qoidalarga amal qilish, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish va topshirilgan vazifalarni to‘g‘ri bajarish uchun mas’ullikni his etish kabi tuyg‘ularning shakllantirilishi nazarda tutilgan.

Mazkur dastur talablari bo‘yicha maktabgacha ta’lim quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1. Bolalikni o‘ziga xos qadriyat ekanligini tan olish.
2. Bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish.
3. Har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta’minlash.

4. Bolaning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta’minlash.

5. O‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish.

6. MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi.

7. Milliy, tarixiy va madaniy an’analar, ma’naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo‘lish.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 3-bo‘limi Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv deb nomlangan bo‘lib, uning “Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari” nomli 3.1 paragrafida kompetensiya turlari, jumladan, kommunikativ kompetensiya, o‘yin kompetensiyasi ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyasi va ularning qisqacha mohiyati yoritib o‘tilgan.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolaning tayanch kompetensiyalari sifatida quyidagilar tanlab olingan:

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bundan tashqari ushbu kompetensiyaga ega bo‘lish asosida bolalar muloqot uslublarini to‘g‘ri tanlash, zaruriy axborotlarni izlash, ularni tahlil qila bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, saqlash qobiliyatlarini ham rivojlantirib boradilar.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar. Guruhlarda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Muammoli vaziyatlarda ular yoshi va individual rivojlanish xususiyatlariga mos ravishda ularni hal qilish harakatlarini amalga oshiradilar.

Xulosa. Ijtimoiy kompetensiya kelajakda bolalarga jamoat joylarida o‘zini tutish qoidalari, jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lish hissini shakllantirish bilan bir qatorda, jamoani tuzish, jamoa hayotiga faol qatnashish, tengdoshlari, katta yoshdagilar va o‘zidan kichiklar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnata olish qobiliyatini shakllantirishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimardonova M. B. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini kognitiv rivojlantirishda foydalaniladigan yondashuvlar tavsifi.Mug'allim hem uzliksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikaliq jurnal. №3 2020 jil. 131-135 betlar

2. Караханова О.Ю. Бошланғич синф ўқувчиларини мантиқий фикрлашга ўргатишнинг дидактик тизимини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.я автореферати. Қарши.2021. -46 б.

3. Қосимова Г.И. Бошланғич синф ўқувчиларида табиий-илмий дунёқарашни шакллантириш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.я автореферати. Қарши.2021. -49 б.

4. Қўйсинов.О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. Педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси.Тошкент. 2019.219-б.

5. Назирова Г.М., Тизимли ёндашув асосида мактабгача таълим муассасаларида педагогик жараёнларни такомиллаштириш // пед.ф.б.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент: МТМРМҚТМОИ, 2019. 155 бет.